

**QUYI BOSQICH FIKRLASHDAN YUQORI BOSQICH
FIKRLASHGA O‘TISH: BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI VA
O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA FIKRLASHNI
BOSQICHMA-BOSQICH RIVOJLANTIRISHNING AMALIY
YO‘LLARI**

Ahmedova Mastura Jamoliddinovna

Guliston davlat universiteti, tayanch doktorant

[Tel:998997534040](tel:998997534040)

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili hamda o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar fikrlash faoliyatini quyi bosqich fikrlash (eslash–tushunish–oddiy qo‘llash) darajasidan yuqori bosqich fikrlash (tahlil–baholash–yaratish) darajasiga bosqichma-bosqich olib chiqishning amaliy mexanizmlari yoritiladi. Savollarni ochiq shaklga o‘tkazish, mezon asosida tanlash va baholatish, shuningdek, matn asosida yangi mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali o‘quvchi fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlantirish yo‘llari dars amaliyotiga tayangan holda misollar bilan asoslanadi. Integrativ (ona tili + o‘qish) yondashuv doirasida topshiriqlarni qayta loyihalash imkoniyatlari ochib beriladi, o‘qituvchi uchun “signal fe’llar” hamda o‘quvchi uchun kichik baholash ko‘rsatkichlari tizimi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, o‘qish savodxonligi, quyi bosqich fikrlash, yuqori bosqich fikrlash, tahlil, dalillash, baholash, yaratuvchan topshiriqlar, baholash ko‘rsatkichlari, boshlang‘ich ta’lim.

Kirish

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslari o'quvchining nutqiy faoliyati, tafakkuri hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradigan yetakchi fanlar sirasiga kiradi. Bu fanlar orqali o'quvchi faqat o'qish–yozish malakasini egallab qolmaydi; u matn mazmunini anglash, fikrni mantiqan ifodalash, suhbatda faol ishtirok etish, savol berish va javobni asoslash, muammoli vaziyatda to'g'ri qaror topish kabi tayanch ko'nikmalarni ham bosqichma-bosqich o'zlashtiradi. Shu ma'noda, ona tili va o'qish savodxonligi darslari keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatning “tayanch maydoni” hisoblanadi. [1]

Amaliyotda esa mazkur fanlar bo'yicha ta'lim jarayoni ko'pincha matnni o'qish, mazmunni qayta bayon qilish, qoida va ta'riflarni yod olish, tayyor namunani takrorlash kabi faoliyatlar bilan chegaralanib qolmoqda. Bunday yondashuv, albatta, quyi bosqich fikrlash ko'nikmalarini (eslash–tushunish–oddiy qo'llash) mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq zamonaviy ta'lim talablari o'quvchidan faqat tayyor axborotni qayta tiklashni emas, balki o'qilgan matnni tahlil qilish, muallif pozitsiyasini anglash, asosiy g'oya va maqsadni aniqlash, dalil va misollar yordamida fikrni mustahkamlash, turli variantlarni taqqoslash hamda yangicha yechimlarni taklif etishni ham talab qiladi. [2]

O'qish savodxonligi endilikda faqat “mazmunni tushunish” bilan cheklanmay, “mazmunni anglab, unga munosabat bildirish va amaliy xulosa chiqarish” bosqichiga yo'naltirilmoqda. Ona tili darsida ham faqat qoidani bilish emas, balki til birliklarining ma'no, uslub va vaziyatga ta'sirini tushunish, fikrni aniq va ta'sirli ifodalash, matnni qayta tuzish, tahrirlash kabi murakkab faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. [3]

Shu jihatdan, darsda qo'yiladigan savollar va beriladigan topshiriqlar o'quvchi fikrlashining qaysi bosqichda faollashishini belgilovchi muhim didaktik omil sifatida namoyon bo'ladi. Agar savollar asosan "kim?", "nima?", "qachon?" kabi shaklda bo'lsa, o'quvchi ko'proq quyi bosqich fikrlash doirasida qoladi va javobni matndan "topish" hamda "qayta aytish" bilan cheklanadi. Aksincha, "nega?", "qanday?", "qaysi yechim to'g'riroq?", "qanday dalil bor?", "agar sharoit o'zgarsa nima bo'ladi?" kabi savollar o'quvchini yuqori bosqich fikrlashga yo'naltirib, tahlil qilish, izohlash, baholash va yaratish amallarini ishga tushiradi. [2]

Demak, metodik jihatdan muhim vazifa — quyi bosqich fikrlash topshiriqlarini inkor etmasdan, ularni zarur poydevor sifatida qabul qilgan holda, topshiriqlar tizimini bosqichma-bosqich murakkablashtirish va o'quvchini yuqori bosqich fikrlashga olib chiqadigan vazifalar hajmini oshirishdan iborat. Bu jarayon o'qituvchidan darsni "topish–aytish" yo'nalishidagina emas, "tushunish–asoslash–yaratish" yo'nalishida ham qurishni, ya'ni topshiriqlarni didaktik qayta loyihalashni talab qiladi.

Maqsad

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida topshiriqlar tizimini qayta loyihalash orqali o'quvchilarda quyi bosqich fikrlashdan yuqori bosqich fikrlashga o'tishni ta'minlaydigan amaliy yo'llarni asoslash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Vazifalar

1. Quyi bosqich fikrlash va yuqori bosqich fikrlashning dars jarayonidagi vazifaviy farqlarini aniqlashtirish;

2. Savolni ochish, mezon qo‘shish, yangi mahsulot yaratish mexanizmlari asosida savol–topshiriqlarni yuqori bosqich fikrlashga yo‘naltirish yo‘llarini asoslash;

3. Integrativ (ona tili + o‘qish) mashg‘ulotlarida yuqori bosqich fikrlashni faollashtiruvchi topshiriqlar namunalari bankini tavsiya etish;

4. O‘quvchi faoliyatini baholash uchun sodda mini baholash ko‘rsatkichlari tizimini taklif etish.

Tadqiqot obyekti

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchi fikrlash faoliyatini tashkil etish jarayoni.

Tadqiqot predmeti

Quyi bosqich fikrlash topshiriqlarini yuqori bosqich fikrlashga yo‘naltiruvchi savol-topshiriqlarni qayta loyihalash mexanizmlari va ularning amaliy qo‘llanish yo‘llari.

Tadqiqot metodlari

Pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tahlil, dars topshiriqlarini didaktik qayta loyihalash, metodik modellashtirish hamda amaliy misollar asosida umumlashtirish. [4]

Kutiladigan natija

O‘qituvchi topshiriqlarni tizimli ravishda bosqichma-bosqich murakkablashtirish orqali o‘quvchini tayyor axborotni qayta aytish darajasidan dalilga tayangan tahlil, mezon asosida baholash va yangi mahsulot yaratish darajasiga olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi; natijada o‘quvchining o‘qish

savodxonligi, fikrni asoslash hamda kommunikativ ifoda ko'nikmalari rivojlanadi.

Quyi bosqich fikrlash va yuqori bosqich fikrlash: mohiyati va farqi

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchining fikrlashi turli darajada namoyon bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan beriladigan savol va topshiriqlar o'quvchini ma'lum bir fikrlash pog'onasida "ishlash"ga undaydi: ba'zan o'quvchi matndan tayyor axborotni topib aytadi, ba'zan esa matndan kelib chiqib xulosa chiqaradi, fikrini asoslaydi yoki yangi yechim taklif etadi. Shu bois quyi bosqich fikrlash va yuqori bosqich fikrlash tushunchalari dars topshiriqlarini rejalash, baholash hamda o'quvchi fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlantirishda muhim metodik yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. [2]

Quyi bosqich fikrlash, odatda, axborotni qabul qilish, uni qayta tiklash va sodda qo'llashga tayanadi. Bunday vazifalarda o'quvchi ko'proq matndan kerakli ma'lumotni topadi, mazmunni qayta bayon qiladi, til birliklarini ajratadi yoki qoidani tayyor shaklda misolga tatbiq etadi. Bu bosqich "poydevor" sanaladi: o'quvchi mazmunni anglamasa yoki so'z, gap, grammatik birliklarni ajrata olmasa, keyingi bosqichdagi tahlil va baholash jarayoni sustlashadi. Quyi bosqich fikrlashning muhim belgisi shundaki, javob ko'pincha matnda mavjud bo'ladi, "to'g'ri–noto'g'ri" mezoni kuchli bo'ladi va dalillash talabining ulushi nisbatan past bo'ladi.

Yuqori bosqich fikrlash esa o'quvchini matn yoki til materialiga chuqur kirishga, sabab-oqibatni aniqlashga, fikrni dalil bilan asoslashga hamda mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Bu bosqichda o'quvchi tayyor javobni takrorlash bilan cheklanmaydi: u matndagi bog'lanishlarni tahlil qiladi, variantlarni taqqoslaydi, mezon asosida baholaydi va yangicha mahsulot yaratishga intiladi. [2] Ona tili darslarida bu, ayniqsa, so'z tanlovi, gap tuzilishi,

uslubiy ifoda va nutq aniqligi bilan bog‘liq topshiriqlarda yaqqol ko‘rinadi: o‘quvchi til birligini “nomlaydi” emas, “nima uchun shunday ishlatilganini” anglaydi, fikrni qayta tuzadi, tahrirlaydi, vaziyatga mos ifoda tanlaydi.

Umuman olganda, quyi bosqich fikrlash “topish va aytish” bilan ifodalansa, yuqori bosqich fikrlash “o‘ylash, asoslash va yangisini yaratish” mazmunini beradi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda quyi bosqich fikrlashni poydevor sifatida saqlagan holda, o‘quvchini yuqori bosqich fikrlashga olib chiqadigan savol-topshiriqlar ulushini oshirish metodik jihatdan muhim shart hisoblanadi.

Integrativ yondashuv: ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini integratsiyalash boshlang‘ich sinf o‘quvchisida matnni anglash, til birliklarini ongli tahlil qilish hamda fikrni vaziyatga mos ifodalash ko‘nikmalarini bir-biriga bog‘langan yagona jarayon sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda o‘qish darsidagi “mazmunni anglash” ishlari ona tili darsidagi “ifodani aniqlashtirish, tahlil va tahrir” ishlari bilan uzviy bog‘lanadi. Natijada o‘quvchi matnni faqat o‘qib, qayta aytib qolmaydi; u matnning qanday qurilgani, muallif nimaga urg‘u bergani, so‘z va iboralar qanday ta’sir uyg‘otgani, gapni qanday qayta tuzsa fikr aniqroq chiqishi kabi savollarga ham javob izlaydi. [5]

Amaliyotda hikoya o‘qilgach, ona tili bo‘yicha grammatik topshiriqlar berilishi odatiy hol. Biroq topshiriqlar oldindan rejalashtirilmasa, ular ko‘pincha “topish–ko‘rsatish” doirasida qoladi. Shuning uchun integratsiyalashgan darsni ikki bosqichda qurish maqsadga muvofiq: birinchi bosqichda quyi bosqich fikrlash orqali mazmun va til birliklari bo‘yicha tayanch poydevor yaratiladi; ikkinchi bosqichda esa yuqori bosqich fikrlashga olib chiqadigan savol va vazifalar ulushi ongli ravishda oshiriladi. Masalan,

quyi bosqichda o‘quvchi hikoyaning qisqa mazmunini aytadi, qahramon ismini topadi, matndan beshta otni ajratadi, gap bo‘laklarini ko‘rsatadi. Yuqori bosqichda esa qahramon qarorini sabablar bilan izohlaydi, matndan dalil keltiradi, muallif tanlagan iboralarning ta‘sirini tahlil qiladi, matnni xabar yoki e‘lon ko‘rinishiga o‘tkazib sarlavha qo‘yadi, bitta gapni rasmiy va og‘zaki uslubda qayta yozib, qaysi biri vaziyatga mosligini mezon asosida asoslaydi. Ana shunday integratsiya o‘quvchini “matnni o‘qish”dan “matn ustida fikrlash”ga olib boradi.

Quyi bosqich fikrlashdan yuqori bosqich fikrlashga o‘tishning uch amaliy mexanizmi

O‘quvchini quyi bosqichdan yuqori bosqich fikrlashga olib chiqishda har doim ham murakkab metodik tizim talab qilinmaydi. Ko‘pincha bitta topshiriqning o‘zini uchta oddiy, lekin samarali o‘zgarish orqali yuqori bosqichga yo‘naltirish mumkin.

Birinchi mexanizm — **savolni “ochish”**, ya’ni yopiq savolni ochiq savolga aylantirishdir. “Qahramon nima qildi?” savoli o‘quvchidan faktni aytishni talab qiladi. Uni “Nega shunday qildi?”, “Boshqa yo‘l bormi?”, “Agar boshqacha qaror qilsa nima bo‘lardi?” kabi shaklga o‘tkazish o‘quvchini sabab izlashga, izohlashga va xulosa chiqarishga majbur qiladi. [2]

Ikkinchi mexanizm — **mezon asosida tanlash va baholatish**. Yuqori bosqich fikrlashning muhim belgisi — bahoni “yoqdi–yoqmadi” darajasida qoldirmasdan, aniq mezon bilan asoslashdir. O‘quvchi fikrini “aniqlik”, “mantiq”, “ta’sirchanlik”, “adolat”, “xavfsizlik”, “samaradorlik” kabi 2–3 mezon orqali tartiblaydi. Bu esa fikrning ichki mantiqini kuchaytiradi va dalillash madaniyatini shakllantiradi. [6]

Uchinchi mexanizm — **yangi mahsulot yaratishga yo‘naltirish**. Yaratish faqat badiiy ijod bilan cheklanmaydi: matnni boshqa janrga o‘tkazish, qayta yozish, muqobil yakun tuzish, dialog qurish, e‘lon yoki xabar shaklida ifodalash, qisqa va kengaytirilgan variant tuzish kabi faoliyatlar ham yaratuvchan topshiriqlar doirasiga kiradi. [7] Bu turdagi vazifalar o‘quvchini matnni qayta qurish orqali mazmunni chuqurroq anglashga olib keladi.

O‘qituvchi uchun tezkor indikatorlar: “signal fe‘llar”

Dars jarayonida topshiriqning qaysi bosqich fikrlashga xizmat qilayotganini tez aniqlash o‘qituvchiga topshiriqlar muvozanatini boshqarishda yordam beradi. Quyi bosqich fikrlashda odatda “ta’rifla”, “sanab ber”, “ko‘rsat”, “eslab ayt”, “top”, “qayta ayt”, “takrorla” kabi fe‘llar ko‘proq uchraydi. Yuqori bosqich fikrlash esa “taqqosla”, “asosla”, “dalil keltir”, “xulosa qil”, “bahola”, “qarshi fikrga javob ber”, “qayta yoz”, “muqobil yechim top” kabi fe‘llar bilan ifodalanadi. Mazkur indikatorlar o‘qituvchiga darsni tez tahlil qilishga, quyi bosqichda “to‘xtab qolmaslik”ka va yuqori bosqich vazifalar ulushini ongli ravishda oshirishga metodik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. [6]

O‘quvchi uchun kichik baholash ko‘rsatkichlari

Yuqori bosqich fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarda baholash jarayoni o‘quvchi uchun ham, o‘qituvchi uchun ham tushunarli bo‘lishi zarur. Aks holda o‘quvchi natijani “tasodifiy baho” sifatida qabul qilib, o‘z xatosini anglamaydi; o‘qituvchi esa o‘sish dinamikasini izchil kuzata olmaydi. Shu sabab o‘quvchining o‘z ishini tezda tekshirishi va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘ra olishi uchun mini baholash ko‘rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mazkur ko‘rsatkichlar uch yo‘nalishda jamlanadi: **tahlil, baholash, yaratish**. Tahlil yo‘nalishida o‘quvchining fikrini dalil bilan mustahkamlash

darajasi asosiy mezon bo‘ladi: dalil yo‘q bo‘lsa, javob umumiy gaplar doirasida qoladi; bitta dalil keltirilsa, boshlang‘ich isbot yuzaga keladi; ikki yoki undan ortiq dalil berilib, ular izohlangan bo‘lsa, tahliliy yondashuvning yetukligi ko‘rinadi. Baholash yo‘nalishida o‘quvchining fikri “yoqdi–yoqmadi” bilan tugab qolmasligi muhim: bitta sabab aytilsa, bu oddiy baho; mezonlarga tayangan holda kamida ikki sabab bilan asoslanganda esa baholash jarayoni chuqurlashadi. Yaratish yo‘nalishi o‘quvchining yangi g‘oya, muqobil yechim yoki matnni yangicha shaklda qayta qurish darajasini ko‘rsatadi: yangi mahsulot bo‘lmasa — reproduktiv daraja; bitta g‘oya bo‘lsa — o‘rtacha daraja; ikki va undan ortiq g‘oya yoki bitta kuchli g‘oya izoh bilan berilsa — yuqori daraja. Bunday mini ko‘rsatkichlar o‘quvchida “men faqat aytdimmi yoki fikrimni dalil bilan asosladimmi?” degan ichki nazoratni shakllantiradi va fikrlash sifatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bir topshiriqni bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha namuna

Bitta topshiriqni bosqichma-bosqich rivojlantirish o‘qituvchiga quyi bosqich fikrlashdan yuqori bosqich fikrlashga o‘tishni tabiiy yo‘l bilan tashkil etish imkonini beradi. Masalan, avval o‘quvchiga quyi bosqichga mos topshiriq beriladi: “Hikoyani qayta ayt. Matndan beshta ot top.” Bu vazifa orqali o‘quvchi matn mazmunini anglaganini ko‘rsatadi va til birliklarini ajratish orqali ona tili bo‘yicha poydevor ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Keyingi bosqichda esa aynan shu mazmun yuqori bosqich fikrlashga yo‘naltiriladi: “Qahramon qaroriga ikki alternativa yoz; har biriga bitta sabab keltir (matndan dalil bilan). So‘ng shu fikrni rasmiy va og‘zaki uslubda qayta ifodala.” Bu vazifada o‘quvchi endi faktni topish bilan cheklanmaydi; u muqobil yechimlar taklif qiladi, dalil bilan asoslaydi va fikrini uslubiy jihatdan mos ifodalaydi. Natijada moslashuvchan fikrlash (alternativ yechim), tahliliy yondashuv (dalillash) hamda ona tili kompetensiyasi (uslubga mos ifoda) bir butun holda uyg‘unlashadi.

Xulosa

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari boshlang'ich sinf o'quvchisida nutq, tafakkur hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning eng muhim maydonidir. Dars amaliyotida quyi bosqich fikrlash vazifalari zarur poydevor bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim talablari o'quvchini yuqori bosqich fikrlash amallariga — tahlil, dalillash, mezon asosida baholash va yangi mahsulot yaratishga olib chiqishni taqozo etadi. Ushbu maqolada asoslanganidek, topshiriqlar tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish uch asosiy mexanizm orqali samarali tashkil etilishi mumkin: savolni ochiq shaklga o'tkazish, mezon asosida baholatish va yaratuvchan mahsulotga yo'naltirish. Integrativ (ona tili + o'qish) yondashuvi esa o'quvchini "matnni o'qish"dan "matn ustida fikrlash"ga olib borib, fikrini dalil bilan asoslaydigan, vaziyatga mos ifodalay oladigan hamda muqobil yechim taklif qiladigan shaxs sifatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, signal fe'llar dars topshiriqlarini tez tahlil qilish imkonini bersa, mini baholash ko'rsatkichlari o'quvchining o'zini nazorat qilishi va fikrlash sifatini kuzatib borishini yengillashtiradi. Demak, mazkur yondashuv boshlang'ich ta'limda savodxonlikni chuqurlashtirish va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy-metodik asos sifatida qo'llashga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.
2. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: David McKay Company.
3. Krathwohl, D. R. (2002). A Revision of Bloom's Taxonomy: An Overview. *Theory into Practice*, 41(4), 212–218.

4. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and Language*. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Marzano, R. J. (2010). *Designing & Teaching Learning Goals and Objectives*. Alexandria, VA: ASCD.
7. Black, P., Wiliam, D. (1998). Assessment and Classroom Learning. *Assessment in Education*, 5(1), 7–74.
8. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan **Davlat ta’lim standartlari** va me’yoriy hujjatlar (amaldagi tahrir).
9. Boshlang‘ich ta’lim uchun **“Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanining namunaviy o‘quv dasturi** (amaldagi tahrir).
10. **“Ona tili va o‘qish savodxonligi”** darsliklari (1–4-sinflar). Toshkent: (amaldagi nashrlar).
11. Avloniy, A. (1913). *Turkiy guliston yoxud axloq*. (Tarbiya va nutq madaniyati masalalariga oid asar).
12. Yo‘ldoshev, J., Usmonov, S. (yillar ko‘rsatilgan nashrlar). *Pedagogik texnologiyalar va ta’limda innovatsion yondashuv*. Toshkent.
13. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., Pardaev, A. (turli nashrlar). *Ta’limda innovatsion texnologiyalar / interfaol metodlar*. Toshkent.